

Agentlikda yil yakunlariga bag'ishlangan Hay'at yig'ilishi

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligida joriy yilning 17-yanvar kuni Agentlikning 2016-yil ish yakunlariga bag'ishlangan Hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishni Agentlik boshlig'i V. Ismoilov ochib, Hay'at majlisining kun tartibini e'lon qilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvarda o'tkazilgan 2016-yilda respublikani ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2017-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini amalga oshirilishini so'zsiz ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi majlisi haqida atroflicha ma'lumot berib, unda ilgari surilgan masalalardan kelib chiqqan holda sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida batafsil to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng, so'z navbati Agentlik boshlig'ining o'rinbosari Sh. Shovahobovga berilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvardagi PQ-2724-sonli "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shahar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinganligi, uning mazmun va mohiyati to'g'risida keng tushintirishdan boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida 2017-yil 5-yanvarda o'tkazilgan Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksining 2016-ish yakunlari va amalga oshiriladigan ishlar hamda 2017-yilning asosiy vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishiga doir axboroti tinglandi.

2016-yil ish yakunlari haqida ma'lumot berarkan, O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi 2016-yil davomida o'z ish faoliyatini Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 15-yanvarda o'tkazilgan "2015-yilda respublikani ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va iqtisodiyotni yanada isloh qilishni chuqurlashtirish, tarkibiy o'zgartirishlar va modernizatsiyalash bo'yicha 2016-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida"gi majlisi va ushbu majlisda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir" mavzusidagi ma'ruzadan kelib chiqqan holda Agentlikning 2016-yilga mo'ljallangan rivojlanish "Dastur"da belgilangan vazifalarni bajarilishi bo'yicha ish olib borilganligi, ularda ilgari surilgan masalalardan kelib chiqib, sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida ham batafsil to'xtalib o'tdi.

- 2016-yil davomida respublika bo'yicha jami 135 ta ochiq tender o'tkazilgan bo'lib, ularda 2069 ta yo'lovchi tashish bo'yicha yo'nalishlar joylashtirildi. Shundan 510 ta shahar ichidagi yo'nalishlarini joylashtirish bo'yicha 38 ta tender, 1377 ta shahar atrofi va 134 ta shaharlararo-viloyatlar ichidagi yo'nalishlarni joylashtirish bo'yicha 91 ta tender, 48 ta shaharlararo-viloyatlararo yo'nalishlarni joylashtirish bo'yicha 6 ta tender o'tkazilgan. Bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda, — dedi Sh. Shovahobov o'z ma'ruzasida.

— 2016-yil davomida 77 ta tabirkorlik sub'ektlari tomonidan Samarqand avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan "ISUZU" rusumli avtobuslardan Namangan viloyatida 138 ta, Toshkent viloyatida 84 ta, Toshkent shahrida 80 ta, Farg'onada 71 ta, Buxoroda 53 ta, Andijonda 41 ta, Surxondaryo va Xorazmda 28 tadan, Jizzaxda 20 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 14 ta, Sirdaryoda 11 ta, Samarqandda 10 ta, Navoiyda 4 ta va Qashqadaryo viloyatida 3 ta jami 585 ta yangi avtobuslar sotib olinib, shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida xizmat ko'rsatilishi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, yil davomida korxonalar tomonidan tijorat asosida foydalanish maqsadida 584 ta yuk avtomobili, 63 ta mikroavtobus va 455 ta (shundan 184 tasi "Damas" rusumli) yengil avtomobillari sotib olindi.

Hisobot davrida rejadagi 46 ta o'rniga 63 ta yo'lovchi tashish yo'nalishlari tashkil etilib, ushbu yo'nalishlarda xizmat ko'rsatish uchun jami 541 ta, shu jumladan 102 ta avtobus, 37 ta mikroavtobus va 402 ta "Damas" rusumli avtotransport vositalari birlashtirildi.

Hozirgi kunda respublikaning eng chekka qishloqlarida ham yo'lovchi tashish transporti xizmati yetib bormagan joy qolmadi.

2016-yil davomida Agentlik va uning hududiy bo'limlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga 3081 ta litsenziya va 201304 ta litsenziya varaqalari berildi. 2017-yilning 1-yanvar holatiga litsenziyalangan avtomobillar soni 96335 tani tashkil etdi.

Agentlikning 2015-yil yakunlariga bag'ishlangan Hay'at yig'ilishida Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand viloyat hududiy bo'limlari ish faoliyatini maqsadli hamda Toshkent shahar hududiy bo'limlari ishini nazorat tartibida o'rganish natijalari to'g'risida litsenziyalash, harakat xavfsizligini tashkil etish va nazorat qilish bo'limi boshlig'i o'rinbosari A.Isaevning ma'lumoti tinglandi.

Hay'at yig'ilishida soliq organlariga topshirilgan 21721 dona bayonnomalarga asosan, litsenziyasiz faoliyat ko'rsatgan avtotransport egalari nisbatan jami 26 mlrd. 670 mln. so'm miqdorida moliyaviy jarimalar qo'llanilganligi ta'kidlandi.

Hisobot davrida Markaziy apparat va hududiy bo'limlar tomonidan litsenziya talab va shartlarini buzganligi uchun 374 ta korxonalariga tegishli 487 ta litsenziyaning amal qilish muddati 10 ish kuniga to'xtatilgan.

Shu bilan birga, sud qarorlariga asosan 128 ta tashkilotning 150 ta litsenziyasi 10 ish kundan ortiq muddatga to'xtatilgan va 21 ta korxonaning 23 ta litsenziyasi tugatilganligi aytib o'tildi.

Shuningdek, respublikamizda birinchi marta 2016-yilning 20-noyabrdan 20-dekabrgacha "Avtotransport vositalarda yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatish oyli"ning munosib o'tkazilishi ta'minlandi. Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan oylikni targ'ibot qiluvchi bannerlar, buklet va eslatmalar respublika hududlari va tashuvchilarga tarqatildi.

Agentlik va uning hududiy bo'limlari tomonidan tayyorlangan, o'tkazilayotgan oylikning mohiyatini aholiga yetkazuvchi videorolik va video ko'rsatuvlar markaziy va mahalliy televideniya, radiolar orqali qo'yib borilishi ta'minlandi hamda maqolalar tayyorlab, mahalliy gazetalarda chop etilganligi borasida so'zlab o'tdi.

Shu kuni yig'ilishda Agentlikning barcha hududiy bo'limlari boshliqlarining 2016-yil ish yakunlari to'g'risidagi hisobotlari ham tahlil qilinib, mazkur bo'limlarning erishgan yutuqlari e'tirof etilishi barobarida joylarda yo'l qo'yilayotgan ayrim xato va kamchiliklar, boy berilgan imkoniyatlar atroflicha muhokama etildi. Kelgusida ularni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar xususida atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Yig'ilishda Agentlik Hay'ati a'zolari, bo'lim va xizmatlari, hududiy bo'limlar va tarmoq tashkilotlarining rahbarlari hamda OAV xodimlari ishtirok etishdi.

O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi Axborot xizmati
